



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

MEDIA TA'LIM ORQALI OLIY TA'LIM TALABALARIDA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Raximova Xurzoda Kamulovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada media ta'lim orqali oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni shakllantirish mexanizmlari tahlil etilgan. Zamonaviy raqamli muhitda ijodiy, tanqidiy va metaforik tafakkurni rivojlantirishda media texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, ramziy tizimlar, xususan, qadimgi alifbo modeli misolida assotsiativ va divergent fikrlashni faollashtirish usullari ko'rsatib o'tilgan. Media ta'lim kognitiv, kommunikativ va shaxsiy rivojlanishni uyg'unlashtiruvchi integrativ mexanizm sifatida talqin qilingan.

Kalit so'zlar: media ta'lim, kreativ fikrlash, metaforik tafakkur, ramziy tizim, divergent fikrlash, kognitiv faollik, kommunikativ kompetensiya, raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuv, oliy ta'lim.

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ПОСРЕДСТВОМ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ

Рахимова Хурзода Камуловна

Чирчикский государственный педагогический университет, преподаватель

Аннотация

В данной статье проанализированы механизмы формирования креативного мышления у студентов высших учебных заведений посредством медиаобразования. Обоснованы педагогические возможности медиатехнологий в развитии творческого, критического и метафорического мышления в условиях современной цифровой среды. Также на примере символических систем, в частности модели древнего алфавита, продемонстрированы методы активизации ассоциативного и дивергентного мышления. Медиаобразование интерпретируется как интегративный механизм, объединяющий когнитивное, коммуникативное и личностное развитие.

Ключевые слова: медиаобразование, креативное мышление, метафорическое мышление, символическая система, дивергентное мышление, когнитивная активность, коммуникативная компетенция, цифровые технологии, инновационный подход, высшее образование.

MECHANISMS FOR DEVELOPING CREATIVE THINKING IN HIGHER EDUCATION STUDENTS THROUGH MEDIA EDUCATION

Raximova Xurzoda Kamulovna

Chirchik State Pedagogical University, Teacher

Abstract

This article analyzes the mechanisms for developing creative thinking among higher education students through media education. The pedagogical potential of media technologies

in fostering creative, critical, and metaphorical thinking within the modern digital environment is substantiated. Additionally, using symbolic systems, particularly the model of an ancient alphabet, the methods for activating associative and divergent thinking are demonstrated. Media education is interpreted as an integrative mechanism that harmonizes cognitive, communicative, and personal development.

Keywords: media education, creative thinking, metaphorical thinking, symbolic system, divergent thinking, cognitive activity, communicative competence, digital technologies, innovative approach, higher education.

Zamonaviy ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining strategik omili sifatida ta'lim oluvchilarda faqat nazariy bilim emas, balki tashabbuskorlik, innovatsion fikrlash, ijodkorlik, harakatchanlik, moslashuvchanlik, dinamizm va konstruktivlik kabi sifatlarni shakllantirishni talab etmoqda. Raqamli transformatsiya, axborot oqimining keskin ortishi va global mehnat bozori sharoitida mutaxassis tayyor bilimni takrorlovchi emas, balki mustaqil qaror qabul qiladigan, muammolarni tahlil etadigan va jamoada samarali ishlaydigan sub'ekt sifatida namoyon bo'lishi lozim. Bunday kompetensiyalarni rivojlantirish an'anaviy reproduktiv o'qitish doirasida cheklanib qolmay, media ta'lim orqali amalga oshirilishi samarali hisoblanadi. Media ta'lim ta'lim oluvchini axborotni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, baholovchi va yaratuvchi shaxsga aylantiradi, bu esa kreativ fikrlashni shakllantirishning muhim shartidir. Axborotni tanqidiy tahlil qilish intellektual mustaqillikni kuchaytiradi; media mahsulot yaratish ijodiy tafakkurni faollashtiradi; kompyuter simulyatsiyalari, keys-tahlil va rolli o'yinlar muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Shu bilan birga, onlayn muloqot maydonlari va telekonferensiyalar kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi [2].

Zamonaviy o'qituvchi bu jarayonda bilim beruvchi emas, balki fasilitator sifatida faoliyat yuritishi, interfaol seminarlar, munozaralar, guruh tadqiqotlari va psixologik treninglar orqali talabalarning kognitiv, kommunikativ va shaxsiy faolligini oshirishi zarur. Media ta'lim asosida kreativ fikrlashni shakllantirish motivatsiyani kuchaytirish, axborotni tahlil qilish, ijodiy mahsulot yaratish va refleksiya bosqichlari orqali izchil amalga oshiriladi. Natijada shaxsda umrbod ta'limga intilish, yangi texnologiyalarni anglash va ulardan samarali foydalanish, ijtimoiy va kasbiy muhitga moslashish qobiliyati shakllanadi. Shu ma'noda media ta'lim oliy ta'lim tizimida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning strategik mexanizmi bo'lib, raqobatbardosh, ijtimoiy faol va intellektual jihatdan mustaqil mutaxassisni tayyorlashga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda oliy ta'lim amaliyotida ma'lum darajada dogmatik ta'lim elementlari saqlanib qolmoqda. Bunday yondashuv axborotni yodlash va faktlarni to'plashga ustuvor ahamiyat qaratadi, natijada ta'lim oluvchi reproduktiv faoliyat doirasida qolib ketishi mumkin. An'anaviy o'qitish tizimi muayyan bilimlarni shakllantirishda samarali bo'lsa-da, u har doim ham ijodkorlikni to'liq rivojlantirish imkonini bermaydi. Zero, zamonaviy jamiyat sharoitida shaxsdan standart yechimlar emas, balki noan'anaviy, innovatsion va konstruktiv yondashuvlar talab etilmoqda. Ijodkorlik fikrlash, hissiyot, muloqot va individual faoliyat jarayonlarida namoyon bo'ladi hamda shaxsni yaxlit tizim sifatida tavsiflaydi. Ijodiy fikrlash bir vaqtning o'zida inqilobiy va konstruktiv xususiyatga egadir. U tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkretlashtirish, tasniflash, rejalashtirish kabi aqliy operatsiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Shu bilan birga, tanqidiylik, chuqurlik, moslashuvchanlik, kenglik, ravonlik, o'zgaruvchanlik, o'ziga xoslik, metaforik fikrlash va tasavvur kabi sifatlarni ijodiy tafakkurning tarkibiy belgilaridir.

Mazkur sifatlarni rivojlantirishda media ta'lim muhim mexanizm sifatida namoyon

bo'ladi. Media ta'lim sharoitida talaba axborotni faqat qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, qayta ishlov beruvchi va yaratuvchi sub'ektga aylanadi. Masalan, videoleksiya yoki podkast tayyorlash jarayonida talabadan tahlil va sintez, infografika ishlab chiqishda esa umumlashtirish va konkretlashtirish ko'nikmalari talab etiladi. Kompyuter simulyatsiyalari, keys-tahlil va rolli o'yinlar orqali talabalar muammoni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqishga o'rganadilar, bu esa fikrlashning moslashuvchanligi va o'zgaruvchanligini oshiradi.

Media muhitida amalga oshiriladigan guruh loyihalari va onlayn munozaralar kommunikativ kompetensiyani rivojlantirib, jamoaviy ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi. Axborot manbalarini solishtirish va ularning ishonchliligini baholash jarayoni tanqidiy fikrlashni chuqurlashtiradi, bu esa ijodiy g'oyalarning asosli va hayotiy bo'lishini ta'minlaydi. Shu tariqa, media ta'lim ijodiy fikrlashni rivojlantirishning integrativ mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy ta'limda dogmatik yondashuvdan kreativ va mediaga asoslangan ta'lim modellariga o'tish zamon talabidir. Media ta'lim orqali aqliy operatsiyalarni faollashtirish, tanqidiy va konstruktiv tafakkurni rivojlantirish, shuningdek, talabaning shaxsiy va kasbiy salohiyatini yuksaltirish mumkin. Bu esa innovatsion fikrlaydigan, o'zgaruvchan muhitga moslasha oladigan va yangi g'oyalar yaratishga qodir mutaxassisni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi [4].

Ijodiy qobiliyatlar faqat yangi g'oya yaratish bilan cheklanmaydi, balki mavjud g'oyalardan samarali foydalanish, hayot sifatini yaxshilash, shaxsiy takomillashuv va umumiy rivojlanishga xizmat qiladigan intellektual salohiyatni ham qamrab oladi. Ijodiy faoliyat izchil mehnat, qat'iyat va ichki qiziqishni talab etadi. Shu bois oliy ta'lim tizimida talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish maqsadida to'liq emaslik yoki yangi elementlarni integratsiya qilishga ochiqlik bilan tavsiflanadigan o'quv vaziyatlarini yaratish muhimdir.

Ijodkorlikni rivojlantirishda aqliy hujum, ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi, mutaxassis baholash usuli, lateral fikrlash va sinektika kabi usullar samarali hisoblanadi. Ushbu metodlar media ta'lim bilan uyg'unlashganda yanada kuchli natija beradi. Masalan, onlayn platformada tashkil etilgan aqliy hujum jarayonida talabalar raqamli doska yoki forum orqali g'oyalarni ifodalaydi, bu esa fikrlashning ravonligi va moslashuvchanligini oshiradi. Video tahlil yoki podkast tayyorlash kabi faoliyat turlari esa tahlil va sintez kabi aqliy operatsiyalarni faollashtiradi.

Kelajak kasbiy faoliyati uchun muhim bo'lgan fikrlashning moslashuvchanligi, yangi muammolarga tez moslasha olish, tahlil qilish, bashoratlash va modelashtirish kabi fazilatlarini shakllantirish maqsadida maxsus kurslar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunday kurs media ta'lim elementlari bilan boyitilganda, talabalar real ijtimoiy yoki kasbiy muammolarni raqamli muhitda tahlil qilish, ularning yechimini loyihalash va natijani taqdim etish orqali ijodiy fikrlashni amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda kognitiv vazifalarni hal qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Kognitiv vazifalarni tashkil etish kommunikativ-gumanitar texnologiyalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Ular kognitiv yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va kasbiy yo'naltirilgan modellarda namoyon bo'ladi. Polilog ma'ruza bilim almashish va fikrlar xilma-xilligini ta'minlash orqali ijodiy muhit yaratadi.

Talabalarning motivatsion faolligini oshirishda onlayn resurslardan foydalanish orqali ijodiy muammolarni hal qilish imkoniyatlarini namoyish etish samarali hisoblanadi. Real hayot misollarini raqamli formatda ko'rsatish darsning muammoli tabiatini kuchaytiradi va ma'ruza jarayoniga interaktiv elementlar kiritadi. Amaliy mashg'ulotlarda kommunikativ va kognitiv vazifalarni yechish jarayonida olingan axborot talabaning ijodiy fikrlashi rivojlanishi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Fan va texnologiya sohasida asosiy aloqa vositasi matn bo'lgani sababli, talabaning ijodiy fikrlashini rivojlantirish germevntik texnologiyalar orqali ham ta'minlanadi. Germevntik yondashuvni insonning dunyo bilan munosabatini tushuntiruvchi kompleks ta'lim modeli sifatida qarash mumkin. Media muhitida matn, audio va video materiallarni talqin qilish orqali talabalar ma'no yaratish jarayoniga faol jalb etiladi, bu esa ijodiy va tanqidiy fikrlashning uyg'un rivojlanishiga olib keladi [3].

Ijodkorlik mezonlaridan biri sifatida metaforiklik alohida ahamiyat kasb etadi. Metaforaga tayyorlik mutlaqo g'ayrioddiy kontekstda ishlay olish, ramziy tafakkur, assotsiativ fikrlash hamda kompleksni soddada va soddani kompleks tizimda ko'ra bilish qobiliyati bilan bog'liq. Bu sifatlar kreativ fikrlashning intellektual asosini tashkil etadi. Oliy ta'limda ushbu qobiliyatlarni rivojlantirish media ta'lim orqali samarali amalga oshirilishi mumkin, chunki media muhiti ramz, obraz va ma'nolar bilan ishlash imkoniyatini kengaytiradi.

Ramziy tizimlar bilan ishlash metaforik fikrlashni rivojlantiruvchi kuchli pedagogik vosita hisoblanadi. Qadimgi alifbolarni intellektual simulyator sifatida talqin qilish mumkin. Ayrim manbalarda u 7×7 kvadrat tizimi ko'rinishida tasvirlanib, ramziy kalit sifatida yagona axborot makoniga kirish imkonini beradi, deb qaraladi. Unda Koinot rivojlanishining uzluksizligi, hayot aylanishi, vaqt sikllari, osmon va yer uyg'unligi hamda ijtimoiy jarayonlarning tartibliligi haqidagi g'oyalar kodlangan tarzda ifoda etilgan, deb talqin qilinadi. Bu kabi ramziy modellarni tahlil qilish talabada abstrakt fikrlash va ma'no yaratish qobiliyatini faollashtiradi.

Alifboning tuzilishi davriy jadval bilan qiyoslanishi mumkin: har bir harfning nomi, ma'nosi, tartib raqami va grafik konturi mavjud. Kimyoviy elementlar o'zaro ta'sirga kirishganda yangi xususiyatga ega moddalar hosil qilgani kabi, harflar birikib bo'g'in va so'zlarda yangi ma'nolarni yuzaga keltiradi. Bu qiyosiy tahlil assotsiativ va divergent fikrlashni rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan tilning asosiy funksiyasi faqat so'z yasash emas, balki tasvir-yaratish ekani anglashiladi [8].

Media ta'lim mazkur ramziy tahlilni yangi bosqichga olib chiqadi. Masalan, talabalar alifbo elementlarini raqamli infografika, interaktiv xarita yoki animatsion model ko'rinishida taqdim etganda, ular tahlil, sintez va modellashtirish kabi aqliy operatsiyalarni amalga oshiradilar. Raqamli hikoyachilik orqali esa ramziy ma'nolarni zamonaviy ijtimoiy voqelik bilan bog'lash imkoni paydo bo'ladi. Onlayn munozaralar va forumlarda turli talqinlarni solishtirish tanqidiy fikrlashni chuqurlashtiradi hamda ma'no yaratish jarayonini intersub'ektiv darajaga olib chiqadi.

Qadimgi ramziy tizimlarni media ta'lim bilan integratsiya qilish oliy ta'lim talabalarida metaforik va kreativ fikrlashni shakllantirishning samarali mexanizmi hisoblanadi. Bu jarayon talabani tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki ma'no va obraz yaratuvchi sub'ektga aylantiradi. Natijada kompleks jarayonlarni ramziy anglash, assotsiativ bog'lanishlar o'rnatish va innovatsion g'oyalar ishlab chiqish qobiliyati rivojlanadi, bu esa intellektual jihatdan mustaqil va ijodiy fikrlaydigan mutaxassisni tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, media ta'lim oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy axborot muhitida talabaning faol sub'ekt sifatida ishtirok etishi, mediamatnlarni tahlil qilish, interpretatsiyalash va yaratish jarayonlarida ishtirok etishi uning tanqidiy, assotsiativ va divergent fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Media kontent bilan ishlash jarayonida talabalar muammoli vaziyatlarni ko'ra olish, turli nuqtai nazarlarni solishtirish, ramziy ma'nolarni anglash va yangi g'oyalar ishlab chiqish ko'nikmalarini egallaydi.

Shuningdek, media ta'lim ijodiy faollikni rag'batlantiruvchi interaktiv usullar, loyiha ishlari, multimedaviy mahsulotlar yaratish, raqamli hikoyachilik va debat texnologiyalari

orqali amalga oshirilganda, talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, innovatsion yechim topish va g'oyalarni vizual-obrazli ifoda etish kompetensiyalari shakllanadi. Natijada media ta'lim nafaqat axborot savodxonligini oshiradi, balki shaxsning kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi integrativ ta'lim muhitini vujudga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бекназарова С.С., Бекназаров К.Т. Процесс повышения квалификации педагогов путем интегрирования элементов медиаобразования в учебный процесс // Молодой ученый. – 2011. – № 1. – С. 58–59.
2. Коваленко А.В. Компетентностный подход в высшем профессиональном образовании: хрестоматия-путеводитель. – Томск: Изд-во ТПУ, 2007. – 117 с.
3. Кузнецов В.Г. Герменевтика и гуманитарное познание. – М.: Изд-во МГУ, 1991. – 192 с.
4. Лабзина П.Г. Познавательная задача как средство развития креативного мышления студента технического вуза: дис. ... канд. пед. наук. – Оренбург, 2014. – 214 с.
5. Мокраусов И.В. и др. Технология развития критического мышления через чтение и письмо. – Самара: Профи, 2002. – 160 с.
6. Муштавинская И.В. Технология развития критического мышления: научно-методическое осмысление // Методист. – 2002. – № 2. – С. 30–35.
7. Оголсова Н.Н. Мультимедийные проекты как средство повышения квалификации педагогов: дис. ... канд. пед. наук. – Новокузнецк, 2007. – 180 с.
8. Шевченко Н.Ю., Лебедева Ю.В., Неумоина Н.Г. Роль языка в духовном развитии личности // Априори. Серия: Гуманитарные науки. – 2014. – № 2. – С. 1–10.